

Xoliqova Matluba Mardon qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrası assistenti

xoliqovamatluba5@gmail.com

Telefon raqam:+99899773-36-01

Sanaqulova Bahora Ozod qizi

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

KOMMUNIKATIV YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI VA TA‘LIMDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta‘limda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari va ta‘limdagi o‘rni, ta‘lim jarayonini interaktiv va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga, fikr almashishga va amaliy kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv ekanligi to‘g‘risida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ, ta‘lim, o‘qitishning pedagogik-psixologik asoslari, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish, fikr, kommunikatsiya.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теоретические основы коммуникативного подхода в начальном образовании и его роль в образовании, его значение в обеспечении интерактивности и эффективности учебного процесса, а также подготовке учащихся к взаимному общению, обмену идеями и практическому общению в образовательном процессе. считается, что это педагогический подход, направленный на развитие навыков.

Ключевые слова: коммуникативные, образовательные, педагогические и психологические основы обучения, познавательного и социального развития, мышления, общения.

Annotation: This article discusses the theoretical foundations and role of the communicative approach in primary education, its importance in making the educational process interactive and effective, and its pedagogical approach aimed at encouraging students to communicate, exchange ideas, and develop practical communication skills during the educational process.

Key words: communicative, educational, pedagogical and psychological foundations of teaching, cognitive and social development, thought, communication.

KIRISH. Kommunikativ yondashuv o‘quvchilarga guruhda ishlash imkonini beradi, bu esa ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘zaro tajriba almashadilar, bir-birlarining fikrlarini qabul qilishga o‘rganadilar. Shuningdek, bu yondashuv individual o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga qarab, o‘qituvchining individual yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qiladi. Kommunikativ yondashuvda o‘quvchilarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhimdir.

Kommunikativ yondashuv hozirgi vaqtda butun dunyoda keng tarqalgan yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi tilda erkin muloqot qilishga, muloqotning turli vaziyatlarida o'zini adekvat tutishga o'rgatishdir. Ya'ni bu yondashuvda asosiy narsa muloqot paytida o'zaro ta'sir va kommunikativ maqsadga erishishdir [1].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

ASOSIY QISM. Kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari va ta'limdagi o'rni: Kommunikativ yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi samarali muloqotni tashkil etishga asoslangan. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari va ta'limdagi o'rni o'zida bir qator psixologik, pedagogik va metodik tamoyillarni mujassamlashtiradi. Kommunikativ yondashuvning asosiy nazariy asoslari quyidagi jihatlar orqali o'rganiladi:

Kommunikatsiya nazariyasi: Kommunikatsiya nazariyasi bu insonlar o'rtasida axborot almashish jarayoni bo'lib, unda muloqotning maqsad va vazifalari, usullari, vositalari, shuningdek, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalar ko'rib chiqiladi. Bu yondashuvning nazariy asoslari asosan shaxslararo muloqot va axborot almashinishiga e'tibor qaratadi. Ta'lim jarayonida bu nazariyaga asoslangan yondashuv o'qituvchining o'quvchilarga ma'lumotni faqat o'z fikrlarini bildirgan holda emas, balki ular bilan o'zaro fikr almashish orqali yetkazishiga imkon yaratadi.

Sostial-psixologik tamoyillar: Kommunikativ yondashuvning psixologik asoslari insonning ijtimoiy tabiati, o'zaro aloqalar va o'z-o'zini anglash jarayonlariga bog'liq. Psixologik jihatdan bu yondashuv o'quvchining shaxsiy o'sishi va rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali kommunikatsiya o'quvchilarning emotsional va kognitiv rivojlanishiga, ularning o'z-o'zini anglashiga yordam beradi. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini, ya'ni jamoada ishlash, fikr almashish, ijtimoiy javobgarlikni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Pedagogik tamoyillar: Pedagogik asoslar kommunikativ yondashuvni ta'lim jarayonida qo'llashda muhim ahamiyatga ega. Ta'limdagi kommunikativ yondashuvda o'quvchi faqat passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi, o'z fikrini bildirishga qodir bo'lgan shaxs sifatida qaraladi. O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarni ma'lumotlar bilan tanishtirish emas, balki ular bilan muloqot orqali o'qish jarayonini qiziqarli, interaktiv va faol qilishdir. Pedagogik tamoyillar asosida muloqot o'quvchilarning fikrini hurmat qilish, ularning shaxsiy ehtiyojlariga moslashish va o'zaro ishonchni shakllantirishga qaratiladi.

Muloqot va o'zaro aloqalar: O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilar bilan o'zaro faol aloqani o'rnatishdir. Muloqot orqali o'quvchilar o'z fikrlarini, savollarini va g'oyalarini erkin ifoda eta oladilar. Bu esa o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va mustaqil o'qish ko'nikmalarini oshiradi. Kommunikativ yondashuvda muloqot markaziy o'rinda muloqotning samarali tashkil etilishi o'quvchilarning o'zaro anglashuvini, guruh ichidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Ta'limda kommunikativ yondashuvning o'rni: Kommunikativ yondashuv ta'limda o'quvchilarning individual va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu yondashuv o'quvchilarga o'zaro fikr almashish, tahlil qilish, muhokama qilish va o'z bilimi ustida ishlash imkoniyatini beradi. Ta'limda kommunikativ yondashuvning o'rni quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

Faol o'qitish: O'quvchilar muloqot orqali o'qish jarayoniga faol ishtirok etadilar, bu esa ularning bilish jarayonini chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi.

Interaktiv o'quv muhit: Kommunikativ yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv muhitni yaratadi, bu esa o'quvchilarning o'zaro muloqotini, guruhda ishlashni va tajriba almashishni ta'minlaydi.

Kognitiv va rivojlanish: Muloqot orqali oshqalar bilan o'z fikrlarini taqqoslashga, shuningdek, jamiyatda o'z o'rnini topishga o'rganadilar.

Kommunikativ yondashuvning metodik asoslari: Kommunikativ yondashuvni ta'lim jarayoniga qo'llashda metodik yondashuvlar ham muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuvda o'qituvchi o'quvchilarni faqat nazariy bilimlar bilan tanishtirmaydi, balki ularga amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, muloqotda faol ishtirok etishga undaydi.

Kommunikativ yondashuvning tarixi va rivojlanish bosqichlari: Kommunikativ yondashuv (kommunikativ metodika) – ta'limda tilni o'rganish va muloqot qilishning eng samarali usulidir. Bu yondashuv o'quvchilarni tilni faqat nazariy o'rganishdan tashqari, uni amaliy ravishda, muloqotda faol qo'llashga yo'naltiradi. Kommunikativ yondashuvning tarixi va rivojlanish bosqichlari tilshunoslik, pedagogika va psixologiya sohalaridagi bir qancha inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'liq.

Kommunikativ yondashuvning tarixi: Erta bosqichlar (XX asrning boshlarigacha): O'rta asrlar va yangi davrda til o'rganish ko'pincha grammatikaga asoslangan edi. Bu davrda til o'rganish metodlari asosan tilni yozma shaklda va grammatikani tushunishga yo'naltirilgan edi. O'quvchilar o'rganayotgan tilni muloqotda qo'llashga unchalik urg'u berilmagan.

XX asrning boshlaridagi o'zgarishlar: XX asrning boshlarida lingvistika va psixologiya fanlarining rivojlanishi bilan til o'rganishning yangi yondashuvlari shakllana boshladi. Bu davrda til o'rganishda grammatik-translate usulidan farq qilgan yangi metodlar ishlab chiqila boshladi. Keyinchalik, kommunikativ yondashuvning asosiy g'oyalari paydo bo'ldi, bu yondashuv tilni faqat til bilimlarini o'rganishdan tashqari, real hayotdagi muloqotda qo'llashga qaratildi.

1960-1970-yillar: Kommunikativ yondashuvning shakllanishi:

1960-yillarda Britaniya va AQShda til o'rganish metodlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda til o'rganishning "kommunikativ yondashuvi" (communicative approach) deb atalgan yangi model ishlab chiqildi. Kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi tilni amaliy ravishda, real hayotdagi vaziyatlarda foydalanishga o'rgatish edi. Bu metodga lingvistik kommunikasiyaning o'ziga xos jihatlarini o'rganish, muloqotda faol ishtirok etish, tilni kommunikativ vosita sifatida ishlatish kiradi. Asosiy ta'lim metodlari o'quvchilarga vaziyatlar, rol o'ynash, guruhlarda muloqot qilishni o'rgatishga qaratilgan edi.

1980-1990-yillar: Kommunikativ yondashuvning to'liq rivojlanishi: 1980-yillarda, kommunikologiya va lingvistika sohalarining rivojlanishi bilan, kommunikativ yondashuv yanada keng tarqaldi. O'rganilayotgan tilning kommunikativ vazifalari va tilni ishlatishning turli usullari asosiy o'quv materiallariga aylandi. Bu davrda grammatika va leksika o'rganish faqat tilning amaliy qo'llanilishi bilan birga rivojlanishi kerakligi ta'kidlandi. Shuningdek, til o'rganish jarayonida ijtimoiy, madaniy va psixologik faktorlarga ham e'tibor berila boshlandi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi pedagoglardan nafaqat egallagan bilimlarini qayta tiklash, balki kasbiy masalalarni yechishga ijodiy yondashishni, doimiy ravishda mustaqil ta'lim olish qobiliyatini, shaxsiy va kasbiy sifatlarni uzluksiz rivojlantirish talab etilmoqda [2].

Kommunikativ yondashuvning rivojlanish bosqichlari: Grammatik-translate usulidan kommunikativ yondashuvga o'tish: Kommunikativ yondashuvning asosiy qadami grammatik-translate usulidan voz kechish va tilni o'rganishda kommunikatsiya va amaliy qo'llanilishga e'tibor qaratishdir. Bu jarayon XX asrning o'rtalarida boshlandi, unda til o'rganishda muloqotning roli aniq belgilandi.

Tilni muloqot vositasi sifatida o'rganish: 1970-yillarda, til o'rganishda kommunikativ metodlarning ommalashishi bilan, til o'rganishning yangi usullari paydo bo'ldi. Bu bosqichda o'quvchilarga tilni muloqot vositasi sifatida o'rganish, ya'ni tilni real vaziyatlarda ishlatish imkoniyatlari berildi. Tillar o'rganishda grammatikani o'zlashtirishning o'rniga, tilni muloqotda erkin ishlatish muhim deb topildi.

Muloqotning mazmuni va konteksti: 1980-yillarda, kommunikativ yondashuv yanada rivojlanib, til o'rganishda faqat grammatik to'g'riligini emas, balki muloqotning mazmuni va kontekstini ham hisobga olish muhim deb hisoblandi. Bu bosqichda, o'quvchilarni tilni to'g'ri va samarali ishlatishga o'rgatishda muhim qadam sifatida vaziyatni tahlil qilish, suhbatni rivojlantirish va hissiy kommunikasiyani hisobga olish kerakligi ta'kidlandi.

Yuqori darajadagi muloqot va interaktiv o'qitish: 1990-yillarda va keyingi davrda kommunikativ yondashuvni rivojlantirishda interaktiv o'qitish metodlari muhim o'rin tutdi. O'quvchilarni guruhlarda ishlashga, fikr almashishga, muammolarni birgalikda hal qilishga yo'naltirgan usullar keng tarqaldi. Bu bosqichda kommunikatsiya faolligi va o'quvchilarning fikrini erkin ifodalashiga alohida e'tibor qaratildi.

Kommunikativ yondashuvning rivojlanish tarixi tilshunoslik, pedagogika va psixologiya sohalarining rivojlanishiga paralel ravishda shakllandi. Grammatikaga asoslangan yondashuvlardan muloqotga yo'naltirilgan metodlarga o'tish, tilni faqat nazariy emas, balki amaliy o'rganishga urg'u berish zaruratidan kelib chiqqan. Bu yondashuv o'quvchilarga tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki muloqotda erkin va samarali ishlatishni o'rgatishga qaratilgan bo'lib, hozirda ta'limning ajralmas qismiga aylangan.

Kommunikativ yondashuv asosida o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari: Kommunikativ yondashuv pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvda o'qitish faqat ma'lumot berish emas, balki talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqaning o'rnatilishi, shuningdek, talabalar o'rtasidagi muloqotga asoslangan faol o'quv jarayoniga e'tibor qaratiladi. Kommunikativ yondashuvning pedagogik-psixologik asoslari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqotning roli: O'qituvchining o'quvchi bilan samarali muloqoti uning faolligini oshiradi, o'qish motivatsiyasini kuchaytiradi va shaxsiy taraqqiyotga turtki bo'ladi. O'qituvchi faqat bilim manbai sifatida emas, balki fikr almashish, maslahat berish va yordamlashish vazifasini ham bajaradi. Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini tinglaydi, ularga savollar berish, o'z fikrlarini ifodalashga yordam berish orqali ta'limni interaktiv qilishga erishadi.

O'quvchilarning faol ishtiroki: Kommunikativ yondashuvda o'quvchilar o'zlarini o'quv jarayonida faol ishtirok etuvchi shaxslar sifatida his qilishadi. Bu yondashuvda talaba ma'lumotlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi, baholovchi va amaliyotda

qo‘llovchi subyekt sifatida ko‘riladi. O‘quvchilarning faol ishtiroki, guruhda ishlash, muhokama qilish, o‘z fikrlarini bildirish kabi faoliyatlar ularning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Psixologik yondashuv va emotsional intellekt: O‘qitish jarayonida talabalarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Talabalar o‘zlarini qulay his qilishlari, ijtimoiy va emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlanishlari zarur. Kommunikativ yondashuv o‘qituvchiga o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini anglash va ularga moslashish imkonini beradi. O‘qituvchi, shuningdek, talabalarga o‘zaro hurmat va ishonchni rivojlantirishga yordam beradi, bu esa samarali muloqot va hamkorlikni ta‘minlaydi.

Ta‘limning individual va guruhda ta‘siri: Kommunikativ yondashuv talabalarga guruhda ishlash imkonini beradi, bu esa ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘zaro tajriba almashadilar, bir-birlarining fikrlarini tinglashadi va turli fikrlarni qabul qilishga o‘rganadilar. Shuningdek, bu yondashuv individual o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga qarab, o‘qituvchining individual yondashuvlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlash va muloqot: Kommunikativ yondashuvda talabalarga tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhimdir. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, savollar berish, boshqa fikrlarni baholash va konstruktiv muhokama qilishga o‘rganishadi. Tanqidiy fikrlash, shuningdek, talabalar o‘z bilimlarini real hayotdagi vaziyatlarga moslashtirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishda qo‘llash ko‘nikmalarini oshiradi.

Tilni muloqot vositasi sifatida o‘zlashtirish o‘quvchilarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi. Kommunikativ qobiliyat, nafaqat til tizimini bilish, balki muloqot maqsadlariga erishish uchun til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish qobiliyatini ham anglatadi. Kommunikativ faoliyat sohalarining kommunikativ kompetensiya birliklari sifatida ko‘rib chiqish, aloqa mavzulari va vaziyatlari va ularni qo‘llash dasturlari, aloqa taktikasi, muloqot ishtirokchilarining ijtimoiy rollari, shuningdek, turli xil vakolatlarini taqsimlash [3].

Boshlang‘ich ta‘limda kommunikativ yondashuvning ahamiyati shundaki, u nafaqat o‘quvchilarning bilim olishiga, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Ta‘lim jarayonida kommunikativ yondashuvni keng qo‘llash orqali, biz bolalar uchun nafaqat yaxshi bilim, balki ularga hayotda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni ham shakllantiramiz. Bu esa kelajakda ularning muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi.

Xulosa: Umuman olganda bu o‘quv jarayoni o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi samarali muloqot va interaktiv aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usuldir. Ushbu yondashuvning nazariy asoslari lingvistika, psixologiya va pedagogikaga asoslanadi, chunki muloqot — bu nafaqat ma‘lumot almashinuvi, balki o‘quvchilarning fikrlash, tushunish va o‘zaro munosabatlarini rivojlantirish jarayonidir. Ta‘limdagi kommunikativ yondashuvning o‘rni katta: u o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Muloqot orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalash, boshqa odamlar bilan samarali ishlash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Kommunikativ yondashuv metodikasi talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi va o‘qituvchi bilan tengdosh sifatida faol ishtirok etishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xoliqova M.M “Boshlang‘ich ta‘limda kommunikativ yondashuv asosida o‘qitish usullarini takomillashtirish metodikasi (Ona tili darslari misolida)”, “Pedagogik tadqiqotlar jurnali” № 2, noyabr, 2024. B. 118.

2. O'sarov J.E., Babaxodjayeva L.G va b. "Talabalarga o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish jarayonining pedagogik ta'minoti va tashkiliy jihatlari". Pedagogik kompetentlik o'quv qo'llanma, Toshkent "MALIKA PRINT CO" 2021. 61.

3 Tojiddinova N.Sh "Ona tili darslarida ilg'or metodikalardan foydalanish va kommunikativlik". "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali № 13. B.137.